

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI.....	10
Bauyetdinov M.J.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASI.....	18
Usmanova Zumrad Islamovna, Xasanova Yulduz Kayumovna	
TOKLI O'TKAZGICHLARDA MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINING NAZARIY TAHLILI	23
O'ngboyev Anvar, Umarov Uyg'un, Dusiyorov Jaxongir, Jonimqulov Mirtemur	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	30
Akbarova Shaxnoza Yakub qizi	
IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ASALARICHILIK TARMOG'I SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	33
Farmanov Jonibek Ziyadullayevich	
BILVOSITA SOLIQLARNI MA'MURIY BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	38
Mansurova Arofatxon Shavkat qizi	
BANKLARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	43
G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li	
IDEMPOTENT O'LCHOVLAR SIMPLEKSIDA ANIQLANGAN CHIZIQLI OPERATORLAR DINAMIKASINING EKOLOGIK MODELLASHTIRISHDAGI TATBIQI	50
Karimov Muzaffar Musaxonovich, Karimova Shalola Musayevna	
BANKLARARO LIKVIDLILIKNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	56
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
BANKLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH	60
Asemova Rano Jabbarbergenovna	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ СЦЕНАРНОГО АНАЛИЗА РАЗВИТИЯ АПК.....	66
Ли Марина Рудольфовна	
POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI	70
Hasanov Bahrom Bo'ronovich	
XORIJIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIGA XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING TA'SIRI.....	76
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
SULFIDLI POLIMETALL RUDALARNI SELEKTIV FLOTATSIYALASHDA YANGI AVLOD REAGENTLARINI QO'LLASHNING TEXNOLOGIK YECHIMLARI TAHLILI.....	79
Xushvaqтова Zamira Hikmatulloyevna, Saidaxmedov Aktam Abdisamiyevich	
LOGICLABUZ: A BROWSER-NATIVE CO-SIMULATION PLATFORM FOR THE VIRTUALIZATION OF MULTI-MCU ROBOTIC SYSTEMS	84
Ergashev Adizbek Kamol ugli	
DUBAY IQTISODIYOTINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV BOSQICHLARI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	94
Dilmira Abdumalikovna Shamusarova	
MINTAQADA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO MODELLARI.....	99
Yusupova Mehrigon O'ktamovna	
EKONOMETRIK MODELLARNI TANLASH VA ULARNING SIFATINI BAHOLASHDA INTEGRAL MEZONNI QO'LLASH	104
Turayev Baxtiyor Ergashevich	



PHP VA SUN'YI INTELLEKT SINERGIYASI: LARAVEL ASOSIDA INTELLEKTUAL VEB-TIZIMLARNI LOYIHALASH ARXITEKTURASI.....	110
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Temirova Orifa, Yuldashboyev Shermuxammad	
CORPORATE GOVERNANCE QUALITY, FOREIGN DIRECT INVESTMENT, AND ECONOMIC GROWTH: A PANEL ECONOMETRIC ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES (2003–2024).....	119
Yusufjon Pulatov	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	129
Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li	
МЕХАНИЗМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КРУПНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	135
T.T. Жураев	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA HUDUDIY BANDLIKNI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI	140
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
YASHIL IQTISODIYOT, RESURS SAMARADORLIGI, TABIIY KAPITAL, AYLANMA IQTISODIYOT, EKOLOGIK SAMARADORLIK VA INKLYUZIV O'SISH TUSHUNCHALARINING ILMIY EVOLYUTSIYASI TAHLILI	146
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
BUXORO VILOYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI.....	160
Ibragimov Aziz Turayevich	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA SOLIQLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	168
Shirinov Uchqun, Bahodirova Madinabonu	
TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING SWOT VA OMILLI TAHLILI.....	176
Alimova Shamsiya Abidovna	
ВЫЗОВЫ РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКОВ: ИНФРАСТРУКТУРНАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ, ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ.....	182
Умарова Шахноза Акбаровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QUYOSH ENERGIYASIGA ASOSLANGAN YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TIZIMINING IQTISODIY-EKOLOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	190
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING DAROMADLILIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	200
Ulug'bek Abraxmatov	
ZAMONAVIY TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARIDA TRAFIK TURLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNING XIZMAT KO'RSATISH SIFATIGA TA'SIRI.....	204
Abdujapparova M.B., Mirxosilov M.M.	
TURIZMNI MINTAQAVIY RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASH MODELINING TAMOYILLARI VA TARKIBIY ELEMENTLARI	209
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES AND FOOD SECURITY IN DEVELOPED COUNTRIES	214
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi	



THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR OF UZBEKISTAN: AN ECONOMETRIC ANALYSIS	221
Toshmurod Kulmanov, Sarvar Urinov	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION JARAYONLARNI MOLIYALASHTIRISHNING MATEMATIK MODELI	228
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, A'zam Qutbiddin A'zamzoda	
ОБЯЗАТЕЛЬНОЕ МЕДИЦИНСКОЕ СТРАХОВАНИЕ В КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	234
Омокеев Максымбек Конколойевич	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	239
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
МАХАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ХАРАЖАТЛАРИ САМАРАЛИ ИЖРОСИНING MOLIYAVIY MUSTAQILLIKKA TA'SIRI	244
Usmonov Parviz Shavkatovich	
О'ZBEKISTONDA NAQD PULLARNING AYLANMASINI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI	249
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
СОЦИАЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ СФЕРЫ УСЛУГ	258
Абдуллаева Зульфия Иззатовна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA IJTIMOY-IQTISODIY ISLOHOTLAR TAHLILI.....	263
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ ОБЪЁМА ИНВЕСТИЦИЙ К УРОВНЮ ИНФОРМАЦИОННОЙ ПРОЗРАЧНОСТИ РЕГИОНАЛЬНЫХ РЫНКОВ	270
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOT SALOHİYATINI OSHIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	277
Samandarov Jamshidbek Davronbekovich	
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSIYA JARAYONLARI RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	283
Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi	
ANTIBAKTERIAL FAOLLIKKA EGA BO'LGAN YANGI ORGANIK ASOSLI, XONA HARORATIDA FOSFORLANUVCHI MATERIALLARNING FUNKSIONAL XOSSALARI	292
Ro'ziyev Suxrobjon Qahramon o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BANK XIZMATLARIGA INTEGRATSIYASI	299
Abdullayeva Madinabonu Xasanboyevna	
LOGISTIKA KOMPANIYALARIDA BOSHQARUV TIZIMLARINI LOYIHALASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA UNI RESPUBLIKA KICHIK TRANSPORT-LOGISTIKA KORXONALARIDA QO'LLASH.....	305
Shadibekova Dildor Abduraxmanovna	
AGROVOLTAIKA VA VENCHUR KAPITAL: O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI VA QUYOSH ENERGIYASINI BIRLASHTIRGAN INNOVATSION INVESTITSIYA MODELINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	311
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH TIZIMINI AVTOMATLASHTIRISHDA SOLIQLARNING ROLINI OSHIRISH MASALALARI	320
Boymurotov Sodiq	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	324
Toirjonov Sardorbek Dilshodjon o'g'li	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATISH TIZIMINING SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI.....	329
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	



TIJORAT BANKLARIDA KROSS-SOTUVLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	334
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
BIZNES JARAYONLARI SAMARADORLIGINI INTEGRAL INDEKS ASOSIDA BAHOLASH	338
Shodmanov Toshtemir Ro‘ziyevich	
O‘ZBEKISTONNING ENERGETIK SALOHİYATI EMPIRIK TAHLILI	342
Nigmatullayeva Gulchexra Nurullayevna	
FAVQULOTDA VAZIYATLARDА SUV TOSHQINI VA SEL HOLATLARIDA AHOLI VA HUDUDLARINI HIMOYA QILISHGA SALBIY TA‘SIR KO‘RSATUVCHI MUAMMOLI MASALALAR VA ULARNI BARTARAF QILUVCHI BULDOZER ISHCHI JIHOZI KONSTRUKSIYASI	354
Yangiboyev G‘iyosjon, Asqarxo‘jayev To‘lqin	
KAM XARAJATLI AVIATASHUVCHILAR FAOLIYATINING FAOLIYATINING SAMARQAND TURIZMI RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI.....	359
Alisher Suyunov	
POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI	366
Hasanov Bahrom Bo‘ronovich	
GEN Z AVLODI BILAN ISHLASHDA HR STRATEGIYALARI.....	372
Xasanov Sarvar Ulug‘bek o‘g‘li	
МЕНЕДЖМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ	378
Махмудов Суннатжон Абдужаббор угли	
ОЦЕНКА ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРЕИМУЩЕСТВ ВНЕДРЕНИЯ «СМАРТ-ТУРИЗМА» В УЗБЕКИСТАНЕ	383
Юсубова Махлиё Икромовна	
HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELINI TAKOMILLASHTIRISH: EKOTIZIMLI YONDASHUV.....	389
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINING FANLARARO BOG‘LIQLIGI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUV.....	397
Nigmatjonov Sardor Abdumannobovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING BANDLIKNI TA‘MINLASHDAGI AHAMIYATI	403
Mamadaliyev Doniyorbek Shuxratbek o‘g‘li	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING BANDLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Mamadaliyev Doniyorbek Shuxratbek o'g'li

Tashkent International University,
Yurisprudensiya fakulteti dekan o'rinbosari

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes subyektlarining aholi bandligini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2020–2025-yillarga oid rasmiy ma'lumotlari hamda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar negizida tarmoq mehnat resurslarining katta qismi nega aynan kichik tadbirkorlik sohasida to'planayotgani tahlil qilingan. Tadqiqotda kichik biznesda band bo'lganlar ulushining keyingi o'n yillikda 49,7 foizdan 74,5 foizgacha o'sishi, bandlikning tarmoq va hudud kesimidagi tuzilishi, o'zini o'zi band qilish shakllari hamda norasmiy mehnatning rasmiylashuvi yoritilgan. Shuningdek, ish o'rinlari yaratishni rag'batlantiruvchi moliyaviy va ijtimoiy mexanizmlar ko'rib chiqilgan. Olingan natijalar kichik biznes bandlik darajasini belgilovchi asosiy omilga aylanganini, biroq yaratilayotgan ish o'rinlarining unumdorligi va sifati bo'yicha jiddiy vazifalar saqlanib qolayotganini ko'rsatdi. Xulosa qismida bandlikni miqdoran emas, balki sifat jihatidan yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, bandlik, ish o'rinlari, mehnat bozori, o'zini o'zi band qilish, norasmiy bandlik, mikrofirma, yakka tartibdagi tadbirkorlik, mehnat unumdorligi.

Abstract. The article examines the role and importance of small business entities in ensuring employment. Based on official data of the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan for 2020–2025 and current regulatory legal documents, the study analyzes why a significant share of labor resources is concentrated specifically in the small business sector. The research highlights the increase in the share of people employed in small business from 49.7 percent to 74.5 percent over the last decade, the sectoral and regional structure of employment, forms of self-employment, and the formalization of informal labor. In addition, financial and social mechanisms that stimulate job creation are considered. The results show that small business has become a key factor determining the level of employment, while serious challenges remain regarding the productivity and quality of created jobs. The conclusion provides practical recommendations aimed not only at increasing employment quantitatively but also at improving its quality.

Keywords: small business, employment, jobs, labor market, self-employment, informal employment, microfirm, individual entrepreneurship, labor productivity.

Аннотация. В статье раскрываются роль и значение субъектов малого бизнеса в обеспечении занятости населения. На основе официальных данных Национального комитета Республики Узбекистан по статистике за 2020–2025 годы, а также действующих нормативно-правовых документов проанализировано, почему значительная часть трудовых ресурсов сосредоточена именно в сфере малого предпринимательства. В исследовании освещены рост доли занятых в малом бизнесе за последнее десятилетие с 49,7 процента до 74,5 процента, отраслевая и региональная структура занятости, формы самозанятости, а также процесс легализации неформальной занятости. Кроме того, рассмотрены финансовые и социальные механизмы, стимулирующие создание рабочих мест. Полученные результаты показывают, что малый бизнес стал одним из ключевых факторов, определяющих уровень занятости, однако сохраняются серьезные задачи, связанные с производительностью и качеством создаваемых рабочих мест. В заключительной части представлены практические рекомендации, направленные не только на количественное увеличение занятости, но и на повышение её качества.

Ключевые слова: малый бизнес, занятость, рабочие места, рынок труда, самозанятость, неформальная занятость, микрофирма, индивидуальное предпринимательство, производительность труда.

KIRISH

Aholi bandligini ta'minlash har qanday davlat iqtisodiy siyosatining markaziy vazifalaridan biri sanaladi. Ayniqsa, aholisi tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan, mehnatga layoqatli yoshlar ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlar uchun yetarli ish o'rinlarini yaratish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik masalasiga aylanadi. O'zbekistonda har yili mehnat bozoriga yuz minglab yangi ishchi kuchi qo'shilmogda, bu esa bandlikni kengaytirish zaruratini kuchaytiradi.

Yirik korxonalar va davlat sektori bunday hajmdagi ishchi kuchini to'liq qamrab olish imkoniyatiga ega emas. Yirik ishlab chiqarish ko'pincha kapital sig'imi yuqori bo'lib, qo'shimcha mehnatni jalb etish chegaralangan.


Aynan shu o'ringda kichik biznes – mehnatni ko'p talab qiladigan, kirish to'siqlari past, hududiy jihatdan keng tarqalgan va bozor o'zgarishlariga tez moslashuvchan soha – ish o'rinlarini yaratishning bosh manbaiga aylanadi. Kichik korxonalar, mikrofirmalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki dehqon xo'jaligi katta boshlang'ich sarmoyasiz ham faoliyat boshlashi va bir necha kishini ish bilan ta'minlashi mumkin.

Shu bilan birga, mavzuga oid ilmiy adabiyotlarda e'tibor ko'pincha kichik biznesning yalpi ichki mahsulot yoki eksportdagi ulushiga qaratiladi; uning bevosita bandlik yaratish funksiyasi, bu bandlikning tarmoq va hudud bo'yicha tuzilishi hamda sifat o'lchami esa nisbatan kam o'rganilgan. Mazkur maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi – kichik biznes subyektlarining bandlikni ta'minlashdagi o'rnini baholash, bu bandlikning tarmoq, hudud va subyekt turlari kesimidagi tuzilishini ochib berish, o'zini o'zi band qilish hamda norasmiy mehnatning rasmiylashuvi jarayonlarini tahlil qilish va ish o'rinlari yaratishni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni tizimli baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nazariy jihatdan tadqiqot mehnat iqtisodiyoti va tadbirkorlik nazariyasining bir qator klassik qarashlariga tayanadi. D. Birch kichik firmalar yangi ish o'rinlarining asosiy qismini yaratishini empirik tarzda asoslagan edi [11]. D. Storey kichik korxonalarda bandlik dinamikasi va uning beqarorligini o'rgangan [12]. Z. Acs va D. Audretsch tadbirkorlik faolligi bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan [13]. Xalqaro mehnat tashkilotining munosib mehnat (*decent work*) konsepsiyasi esa bandlikning faqat miqdorini emas, balki sifatini ham e'tiborga olishni taqozo etadi [14]. Quyida ushbu yondashuvlar O'zbekiston ma'lumotlari asosida sinab ko'riladi.



1-rasm. Kichik biznesning bandlikni ta'minlash kanallari¹

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning empirik asosini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining mehnat va kichik tadbirkorlik bo'yicha rasmiy ma'lumotlari, lex.uz axborot tizimida e'lon qilingan qonun hujjatlari hamda nufuzli axborot-tahliliy nashrlarning materiallari tashkil etdi. Tahlil davri sifatida 2020–2025-yillar tanlandi; bu oraliq pandemiya keltirib chiqargan turg'unlik va undan keyingi tiklanish bosqichini qamrab olgani bilan tahlil uchun qulaydir.

Ishda statistik guruhlash, tarkibiy-dinamik tahlil, qiyosiy tahlil hamda nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash usullaridan foydalanildi. Asosiy ko'rsatkichlar qatoriga kichik biznesda band bo'lganlar soni va ulushi, subyektlarning turlari bo'yicha tarkibi, tarmoqlar kesimidagi qo'shilgan qiymat ulushi — mehnat jalb etish darajasining bilvosita o'lchovi sifatida — hamda har ming aholiga to'g'ri keladigan subyektlar zichligi kiritildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ayrim joriy ko'rsatkichlar operativ va dastlabki xususiyatga ega; ba'zi nisbiy kattaliklar birlamchi statistik jadvallar asosida muallif tomonidan qayta hisoblab chiqilgan. Manbalar o'rtasida uslubiy farqlar uchragan o'rinlarda eng so'nggi va rasmiy ko'rsatkichga ustunlik berildi.

1 Manba: muallif tomonidan tayyorlangan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari kichik tadbirkorlikning O'zbekiston mehnat bozorida hal qiluvchi mavqega ega ekanini tasdiqlaydi. Yuqorida qayd etilganidek, sohada band bo'lganlar ulushi o'n yil davomida deyarli to'rt dan uch qismgacha o'sdi va 74,5 foizga yetdi [3]. Diqqatga molik jihat shundaki, bu ko'rsatkich kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushidan — 2025-yilning to'qqiz oyida 51,5 foiz — hamda aholi daromadlaridagi hissasidan — 57,9 foiz — ancha yuqori [5; 7]. Bandlik ulushining ishlab chiqarish ulushidan oshib ketishi sohada bir ishlovchiga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligi nisbatan past ekaniga ishora qiladi — bu muhokama qismida alohida ko'rib chiqiladi.

Kichik biznesning turli iqtisodiy o'lchovlardagi ishtirokini taqqoslash uning aynan bandlik bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega ekanini yaqqol ko'rsatadi (1-jadval).


1-jadval.

Kichik biznes subyektlarining asosiy iqtisodiy va ijtimoiy o'lchovlardagi ulushi²

O'lchov ko'rsatkichi	Ulushi, %
Iqtisodiyotda ish bilan bandlikdagi ulushi	74,5
Chakana savdo aylanmasidagi ulushi	81,8
Asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi	60,9
Aholi daromadlaridagi ulushi	57,9
Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi	51,5
Eksportdagi ulushi	32,0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kichik biznesning iqtisodiyotga qo'shgan hissasi ko'p qirrali bo'lsa-da, uning ijtimoiy ahamiyati birinchi navbatda aynan bandlik orqali namoyon bo'ladi. Sohaning bandlikdagi ulushi savdo, investitsiya yoki ishlab chiqarishdagi ulushlaridan ustun turishi kichik tadbirkorlikni mehnat bozorining asosiy tayanchi sifatida baholashga asos beradi.

Iqtisodiyotda band aholining kichik biznesga to'g'ri keladigan ulushi, foizda



2-rasm. Kichik biznesda band bo'lganlar ulushining o'sish dinamikasi³

Kichik biznes yaratayotgan ish o'rinlari iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha bir tekis taqsimlanmagan. Eng yuqori hissa qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida kuzatiladi — bu yerda kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulot va xizmatlarning 96,9 foizini ta'minlaydi. Qurilishda ko'rsatkich 77,6 foizni, chakana savdoda 81,8 foizni, xizmatlar sohasida 55 foizga yaqinni tashkil etadi, sanoatda esa 26,4 foiz darajasida qoladi [5]. Demak, kichik biznes bandligining katta qismi mehnat sig'imi yuqori, lekin ko'pincha mavsumiy va malaka talabi past bo'lgan

2 Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

3 Manba: rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan [3; 9].

sohalarda — qishloq xo'jaligi, savdo va xizmat ko'rsatishda jamlangan.

Yangi tashkil etilayotgan korxonalarining tarmoq taqsimoti ham shu manzarani tasdiqlaydi. 2025-yilning to'qqiz oyida ochilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar orasida savdo sohasi 22 918 ta bilan yetakchilik qildi; uning ortidan sanoat — 8 088 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi — 7 714 ta hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari — 5 513 ta keldi [5]. Bu raqamlar mehnat bozorining kengayishi asosan savdo va xizmat yo'nalishlari hisobiga ro'y berayotganini ko'rsatadi (2-jadval).


2-jadval.

Kichik biznes subyektlarining tarmoqlar bo'yicha ulushi (2025-yil, 9 oy)⁴

Iqtisodiy faoliyat turi	Kichik biznes ulushi, %
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	96,9
Chakana savdo aylanmasi	81,8
Qurilish	77,6
Xizmatlar sohasi	55,0
Sanoat ishlab chiqarishi	26,4

Kichik biznesning tarmoqlar bo'yicha ulushi

Faoliyat turlari kesimida kichik biznes ulushi, foizlarda.



3-rasm. Tarmoqlar bo'yicha kichik biznes ulushi⁵

Kichik biznesning bandlikdagi salohiyatini tushunish uchun uning ichki tuzilishini ko'rib chiqish zarur. 2025-yil 1-oktabr holatiga mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 212 040 birlikni tashkil etdi [5]. Bularning aksariyati — dehqon xo'jaliklari, yakka tartibdagi tadbirkorlar, oilaviy tadbirkorlar va hunarmandlar, ya'ni o'zini o'zi band qilish shakllaridir. Bu hol kichik biznesning bandlikni nafaqat yollanma ish o'rinlari, balki keng ko'lamlil o'zini o'zi mashg'ul qilish orqali ham ta'minlayotganini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining turlari bo'yicha tarkibi (2025-yil 1-oktabr)⁶

Subyekt turi	Soni, birlik	Ulushi, %
Kichik korxonalar va mikrofirmalar	478 988	39,5
Dehqon xo'jaliklari	422 309	34,8
Yakka tartibdagi tadbirkorlar	281 861	23,3
Hunarmandlar	22 100	1,8
Oilaviy tadbirkorlar	5 841	0,5
Import tovarlari sotuvchilar	941	0,1
Jami	1 212 040	100

Subyektlarning deyarli uchdan bir qismi yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlikka to'g'ri kelishi muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Aynan shu shakllar ilgari norasmiy faoliyat bilan shug'ullangan aholini rasmiy maydonga olib chiqishga xizmat qildi. So'nggi yetti yilda norasmiy bandlik ulushi taxminan 60 foizdan — qariyb 7,9 million kishi — 38 foizga — 5,4 million kishi — qisqardi [7]. Yakka tartibdagi tadbirkorlikni ro'yxatdan

4 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari [5].

5 Manba: 3.2-jadval ma'lumotlari asosida tuzilgan.

6 Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi [5].



o'tkazishning soddalashtirilishi, oilaviy tadbirkorlik kreditlari va o'zini o'zi band qilganlar uchun yengilliklar bu jarayonni tezlashtirdi. Natijada 2025-yilning uchinchi choragida ishsizlik darajasi 4,9 foizga tushdi, bu avvalgi davrlarga nisbatan sezilarli pasavishdir [8].

Kichik biznes subyektlari tarkibi

Kichik biznes subyektlarining ulushi, foizlarda.



● Dehqon xo'jaliklari ● Hunarmandlar ● Import tovarlari sotuvchilar ● Kichik korxonalar va mikrofirmalar
● Oilaviy tadbirkorlar ● Yakkalashdagi tadbirkorlar

4-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining tarkibi⁷

Hududiy qamrov va ish o'rinlari yaratish mexanizmlari

Kichik biznes orqali yaratiladigan bandlik imkoniyatlari hududlar bo'yicha ham notekis. Har ming aholiga to'g'ri keladigan kichik tadbirkorlik subyektlari soni respublika bo'yicha o'rtacha 32,1 birlikni tashkil etadi. Eng yuqori zichlik Xorazm viloyati — 43,5, Toshkent shahri — 43,4, Sirdaryo — 37,7 va Buxoro — 37,5 viloyatlarida qayd etilgan [5]. Subyektlar zichligi past hududlarda aholining tadbirkorlik orqali ish bilan ta'minlanish imkoniyati ham nisbatan tor bo'lib qoladi (4-jadval).

4-jadval.

Ayrim hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlari zichligi (har 1000 aholiga, birlik)⁸

Hudud	Zichlik ko'rsatkichi
Xorazm viloyati	43,5
Toshkent shahri	43,4
Sirdaryo viloyati	37,7
Buxoro viloyati	37,5
Respublika bo'yicha o'rtacha	32,1

Davlat bandlikni kengaytirishni rag'batlantirish uchun bir qator moliyaviy va ijtimoiy vositalarni qo'llamoqda. "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" davlat dasturi yangi ish o'rinlari yaratish orqali 5 million aholining bandligini ta'minlashga sharoit yaratishni ko'zda tutgan [2]. "Har bir oila — tadbirkor" va oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida imtiyozli davr va past foizli kreditlar joriy etildi [4]. 2025-yilda aholini tadbirkorlikka jalb etish uchun 22 trillion so'm imtiyozli resurs ajratilib, shundan katta qismi yoshlar va tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi; ayollar uchun kredit foizi boshqa qarz oluvchilarga nisbatan ikki foizga past belgilandi [9]. "Yoshlar daftari" tizimi orqali esa 338 ming yigit-qizga 444 milliard so'mlik yordam ko'rsatildi [10]. Mazkur vositalar 5-jadvalda umumlashtirilgan.

7 Manba: 3.3-jadval ma'lumotlari asosida tuzilgan.

8 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari [5].

5-jadval.
Bandlikni ta'minlashga qaratilgan moliyaviy va ijtimoiy vositalar⁹

Vosita	Asosiy mazmuni va sharti	Yo'nalishi
Imtiyozli mikrokreditlar	Past foiz, imtiyozli to'lov davri	Yangi tadbirkorlik faoliyatini boshlashni qo'llab-quvvatlash
Oilaviy tadbirkorlik kreditlari	Yiriklashtirilgan summa, imtiyozli muddat	Oilaviy bandlik va o'zini band qilish
Yoshlar tadbirkorligi resurslari	Maqsadli ajratmalar va grantlar	18–30 yoshdagilar bandligi
Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash	Foiz stavkasi 2 foizga past	Xotin-qizlar bandligi
“Yoshlar/Ayollar daftari” grantlari	Loyiha kamida 3 kishini ishga olishi shart	Ehtiyojmand qatlamlar bandligi

Olingan natijalar kichik biznesning bandlikni bir necha kanal orqali ta'minlashini ko'rsatadi. Birinchidan, kapital va ma'muriy kirish to'siqlarining pastligi keng ko'lamli o'zini o'zi band qilishni rag'batlantiradi; yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlik millionlab fuqaroga rasmiy daromad manbai yaratadi. Ikkinchidan, savdo, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligida mehnat sig'imi yuqori bo'lgani uchun bu tarmoqlar malakasi past ishchi kuchi uchun bandlik imkoniyatlarini yaratadi. Uchinchidan, kichik korxonalar yirik subyektlar yetib bormaydigan qishloq joylar va mahalla darajasiga kirib boradi, shu tariqa hududiy bandlikni kengaytiradi. To'rtinchidan, rasmiylashtirish kanali ilgari norasmiy yoki vaqtinchalik mashg'ulotni qonuniy faoliyatga aylantiradi.

Ayni paytda yuqori 74 foizlik ulush qisman tarkibiy omillar bilan izohlanadi. Mehnat resurslarining katta qismi dehqon xo'jaliklari va yaqinda rasmiylashtirilgan faoliyatga to'g'ri keladi; demak, bu ko'rsatkich faqat yuqori unumli ish o'rinlari yaratish natijasi emas. Bandlik ulushining — 74,5% — ishlab chiqarish ulushidan — 51,5% — ustun kelishi sohada mehnat unumdorligi nisbatan past ekanini bildiradi. Yaratilgan ish o'rinlarining bir qismi mavsumiy, kam daromadli yoki zaruratdan kelib chiqqan o'zini o'zi band qilish ko'rinishida bo'lib qolmoqda. Shu bois munosib mehnat nuqtai nazaridan bandlikning sifat o'lchovi alohida e'tibor talab qiladi [14].

Xalqaro tajriba bilan qiyoslash ham qiziq manzara beradi. Xalqaro tajribada ham kichik va o'rta biznes bandlikni ta'minlashning muhim manbalaridan biri sifatida baholanadi [13]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlarida kichik va o'rta korxonalar bandligining ulushi odatda 60–70 foiz oralig'ida bo'ladi. O'zbekistondagi 74 foizlik ko'rsatkich bu fonda yuqori bo'lib, u rivojlanayotgan iqtisodiyot tuzilishi bilan — yirik korporatsiyalar sonining kamligi hamda katta agrar va norasmiy bo'g'inning rasmiylashtirilishi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Subyektlar zichligidagi hududiy tafovutlar bandlik imkoniyatlari hududlar kesimida farqlanishiga sabab bo'ladi. Yoshlar va xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki yetarli darajada keng emas. Yaratilayotgan ish o'rinlarining barqarorligi va unumdorligi yetarli darajada yuqori emas, bandlikning sezilarli qismi esa qo'shilgan qiymati past bo'lgan savdo va qishloq xo'jaligida to'plangan. Bu vazifalar kelgusi siyosat ustuvorliklarini belgilashda hisobga olinishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil kichik biznes subyektlari O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlovchi asosiy kuchga aylanganini tasdiqladi. Sohada qariyb 10,5 million kishining mehnat qilishi va bandlikdagi ulushning 74,5 foizga yetishi mehnat bozorining barqarorligi bevosita kichik tadbirkorlikning holatiga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Shu sababli endilikda asosiy vazifa miqdorni oshirishdan ko'ra, yaratilayotgan ish o'rinlarining sifatini yuksaltirishga ko'chmoqda.

Birinchidan, norasmiy mehnatni rasmiylashtirish jarayonini davom ettirish maqsadga muvofiq. Yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlikning soddalashtirilgan tartiblarini yanada kengaytirish hamon norasmiy faoliyat bilan band aholini qonuniy maydonga jalb etishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, bandlik sifatini va mehnat unumdorligini oshirishga e'tibor qaratish lozim. “Yoshlar daftari” kabi tizimlarni kasb-hunar ta'limi bilan bog'lash, ishchilarning malakasini oshirish hamda rag'batlantirish vositalarini unumdorlikni o'stirishga yo'naltirish zarur.

Uchinchidan, tarmoq tuzilishini diversifikatsiya qilish talab etiladi. Bandlikni faqat savdo va qishloq xo'jaligida emas, balki qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan ishlab chiqarish va zamonaviy xizmatlar sohalarida kengaytirishni rag'batlantirish kerak.

To'rtinchidan, yoshlar va xotin-qizlar bandligini maqsadli qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish o'rinli. Ayollar uchun imtiyozli kredit shartlari, yoshlar jamg'armalari hamda moslashuvchan ish shakllari bu qatlamlarning iqtisodiy faolligini oshiradi.

9 Manba: amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan [2; 4; 9; 10].



Beshinchidan, hududiy muvozanatni ta'minlash zarur. Subyektlar zichligi past viloyatlarga yo'naltirilgan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash choralari bandlik imkoniyatlarini tenglashtirishga ko'maklashadi. Umuman olganda, kichik biznes kelgusida ham O'zbekiston bandligining muhim omillaridan biri bo'lib qoladi; strategik urg'u esa miqdoriy o'sishdan sifat, unumdorlik va adolatli hududiy-demografik taqsimot tomon siljishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'RQ-642-son Qonuni. 2020-yil 20-oktabr. <https://lex.uz/docs/-5055690>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6811936>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-7444738>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 37-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6767101>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari: 2025-yil yanvar–sentabr. Press-reliz. – Toshkent, 2025-yil 24-oktabr. – stat.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Mehnat va bandlik statistikasi: rasmiy statistik ko'rsatkichlar. – Toshkent: Milliy statistika qo'mitasi, 2025. – stat.uz.
7. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. 2025-yil III choragida ishsizlik darajasi to'g'risida rasmiy axborot. – Toshkent, 2025-yil 13-noyabr.
8. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yig'ilish materiallari va statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2025-yil 19-mart.
9. "Yoshlar daftari" tizimi orqali ko'rsatilgan yordam natijalari to'g'risidagi rasmiy axborot. – Toshkent, 2024.
10. Birch D. L. The Job Generation Process. – Cambridge, MA: MIT Program on Neighborhood and Regional Change, 1979.
11. Storey D. J. Understanding the Small Business Sector. – London: Routledge, 1994. – 355 p.
12. Acs Z. J., Audretsch D. B. Innovation and Small Firms. – Cambridge, MA: MIT Press, 1990.
13. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook: Trends 2024. – Geneva: ILO, 2024.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 23-iyuldagi "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Saxovat va ko'mak" jamg'armalari mablag'lari hisobidan ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 462-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-7645251>

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100